ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Резюме: В статье теоретически обобщается природа типологической интерпретации на междисциплинарном уровне, сущность понятия литературного мышления и своеобразие стилистики текста. Рассматриваются тип художественной речи, находящийся на пересечении литературоведения, языкознания, философии, эстетики и логики, взаимосвязь системы знаков, состояние художественного произведения, динамика языковой системы, способы существования и повествования, единство формы и содержания, гармония выражения и образа. По сути, движение смысла также служит средством соединения личного интереса и авторского замысла в рамках творческой самостоятельности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ROMANDA SYUJET VA XARAKTER DINAMIKASI

Duysenbayev Olimjon Ismailovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Keyingi yillar romanchiligida inson tafakkuridagi evrilishlarni, hayotga yanada teranroq munosabatda bo'lishni, odam va olam haqidagi qarashlarni falsafiy tarzda aks ettirish yetakchilik qila boshladi. Adabiyotshunos A.Rasulov "Akslar falsafasi" maqolasida quydagi fikrlarni qayd qiladi: "Shakllar, qiyofalar, g'oyalar va obrazlar yaratilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni oldindan jonlantirib ko'rish deganidir"[1]. Nabijon Hoshimovning "Tog'lik qiz" romani syujetidan o'rin olgan voqealar silsilasida qahramonning ma'naviy olamini yoritilishi yetakchilik qiladi.

Asardagi Hasan bolalik xotiralariga qaytar ekan, o'z o'tmishiga nazar solgan qahramon tafakkurdagi ziddiyatlarni yanada teranroq his eta boshlaydi. Quyidagi tasvirlarga e'tibor qarataylik:

O'zbek ayollarining matonatiga, sabr-bardoshiga qoyilman! Bunaqasi hayotda juda kam uchraydi.

– Ha. Anavi daraxt – ayol aslida o'sha bo'ladi, – dedi Xasan va quyoshga iltijo qilayotgan ayol-daraxtni ko'rsatib.

– Yo'g'e. Rostdanmi? U onang emasmidi?

– Yo'q, bu o'sha Mushtariy. Gitara ushlab turgan tosh bu men, dutor ushlab turgani Xusan. Bizning tog'da xuddi shunga o'xshash egiz qoya bor, u yerga meni ilk bor Mushtariy olib borgandi. – Rostdan-a? Qani endi o'sha joyni men ham bir ko'rsaydim[2]

"Tog'lik qiz" romanida qayd qilingan bu tasvirlar mustaqillik davridagi ba'zi asarlar qahramonlari tasviriga o'xshab ketadi, ammo ular taqdiri bir – birini to'ldirib, hayot mantig'ini anglash jarayonidagi mulohazalari mohiyatan farq qiladi. Shuning uchun romanlardagi tasvirlar turli ramzlar orqali aks ettirilganligini kuzatamiz. Bolalik xotiralarini yodga olish,

[1] Rasulov A. Akslar falsafasi. – Toshkent: "Sharq", 2012. – B. 406.
[2] Nabijon Hoshimov "Tog'lik qiz" roman. – Toshkent: Ijod-press nashriyoti, 2016. – B. 18.

Rossiyaga borib ishlash, aka va uka taqdiri, ayol taqdiri, hayot mohiyatini anglash uchun kurashish “Tog‘lik qiz” romanida badiiy talqin etilganligini, adib ramzlar orqali hayotiy va inson tafakkuridagi muammolarni talqin etgan.

“Xuddi nimadir ro‘y berayotganday atrofga alanglab qaraydi, chunki bolaligida adir yonida qo‘y boqib yurardi. Bu voqea ko‘z o‘ngida namoyon qilar ekan, Hasanni bundan o‘n yillarcha oldin uchratganini, u yolg‘izoyoq yo‘ldan hassasini tutgancha kelib, nay yasab o‘tirgan bolaning oldiga keladi. Mushtariy daraxt shoxlarida qora chumchuqlar turar, ular oddiy qushlardan farq qilib, na don-dun terar, na sayrar, na shoxdan shoxga uchib, qo‘nar, faqat kichkina sarg‘ish ko‘zlarini tikkancha nimanidir sabr – toqat bilan kutishardi. O‘tmishga nazar solar ekan, o‘z hayotining murakkab qirralarini anglashga intiladi”[1].

Yozuvchi bu tasvirda inson tafakkuridagi bir-biriga qarama-qarshi ziddiyatlarni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashni talqin qiladi. Mushtariy qalbida kechgan ruhiy iztiroblar ma’lum bir davrga xos bo‘lgan tushunchalar sifatida qaraladi. Bu tushunchalar Mushtariyni taqdirida qanday o‘zgarish yuz berishidan dalolat edi, ammo u taqdiri azaldan darak beruvchi bu insonni juda ko‘p xayolida jonlantiradi-yu, asosli xulosa chiqara olmas edi. Taqdir hukmidan qochib qutulib bo‘lmasligini anglab ulgurgan edi. Shu o‘rinda nima uchun “Anavi daraxt-ayol aslida bu o‘sha Mushtariy bo‘ladi” - degan tasvirlarda falsafiylik tushunchalari mujassam edi. Svetlana bu gaplarning mag‘zini yaxshi anglardi.

Bu o‘rinda yosh yigitning odam va olamga, ayolga bo‘lgan munosabati, ilk taassurotlari talqin qilingan. Uning dunyoqarashida hali hayotni, olamni va odamni anglash tushunchalari o‘ta sodda bir vaqtlar edi. Ammo yillar davomida unutilgan bu tushuncha keyinchalik uni tug‘yonga keltiradi. Mushtariy Hasanning bu gaplarini juda ko‘p o‘yladi, ammo nima uchundir taqdirning murakkabliklarini, ham bolalikning beg‘uborligini unutmagan qiz fikrlarining sababini anglay olmadi. Mushtariy obrazida mujassamlashgan bu xususiyat uning o‘ziga xos xarakter egasi ekanligini ko‘rsatadi.

Asardagi obrazlar tizimi u darajada murakkab xarakterga ega emas, uni kitobxon hazm qilishi mumkin. An’anaviy talqindan noan’anaviy talqin sari siljiyotgan bugungi adabiyotimiz betakror obrazlar olamiga ega ekanligidan dalolatdir. Ammo, romandagi Rossiyada ishlab yurgan aka-ukaning biri ya’ni Husanning vafot etishi voqeasidan keyin Hasanning o‘z uyiga Husan bo‘lib borishi, hatto, ota-onasi ham Hasanni Husan o‘rnida ko‘rishi kabi epizodlar badiiy haqiqatga to‘g‘ri kelmagan. Ya’ni to‘qima mavjud muhit va sharoitga o‘tirmagan. Asarda syujet oqimini ta’minlagan zo‘rma-zo‘raki qo‘llanilgan perepetiya tasvirlari anchagina bor. Jumladan, Hasan sevgan qiz (Mushtariy)ni ukasi Husanga olib berishi, to‘y ustiga yetib kelgan Hasanning ukasi uylanayotgan kelinchakning Mushtariy ekanligini bilsa-da indamasligi, Hasanning o‘z ota-onasiga Mushtariy haqida aytmasligi va o‘z o‘rnida ukaning akasi sevgan qiz Mushtariy ekanligini bilmasligi badiiy haqiqatdan ancha uzoq. Adabiyotshunos va yozuvchi Ulug‘bek Hamdam “Turfa ranglar uyg‘unligi” maqolasida shunday fikrlarni qayd qilib o‘tgan: “Asar – xoh u realistik, xoh u modernistik va hatto u xoh fantastik ruhda bo‘lsin, o‘z botinida shunday bir tuynuk yashirgan bo‘lishi kerakki, shu tuynuk orqali biz o‘z qiyofamizga, qismatimizga nigoh tashlay olaylik. Aks holda u qaysi “izi”ga tegishligidan qat’iy nazar hech narsaga arzimaydi. Demak, ayni tuynuk bizni real dunyo bilan bog‘laydi”[2].

Keyingi davr adabiyotidagi o‘zgarishlar turli xil qarashlarni, tasvirlarni asar syujetiga olib kirdi. Ammo adabiyotning asosiy obyekti hayot, predmeti esa inson ekan uni turfa xil ohanglarda talqin etish an’anasi yuksalib borayotganini kuzatamiz. Shu jihatdan, N.Hoshimov asarlarida ramziy-falsafiy tushunchalar yig‘indisi kitobxonni mushohadaga chorlovchi holatlar, vositalar asar syujetidan o‘rin olgan. Ko‘rinayaptiki, asar syujetidan o‘rin olgan obrazlar tizimi, voqealar talqini zamin bilan, undagi real hayot bilan bog‘langanligi bilan izohlanadi. Demak, roman tarkibidagi obrazlar o‘z olami bilan kurashadi, ziddiyatlar to‘lqini orqali ularning xarakteri yorqin aks etgan. Yillar o‘tgan sayin Mushtariy barcha voqealarni unutadi. Uning xarakterida, botiniy olamida moslashuvchanlik hissi uyg‘onadi. O‘sha mash’um to‘y kunini Mushtariy va Hasan unuta olmaydi. U qalb kechinmalarida yuzaga kelgan fikrni uzoq o‘ylab yuradi. Ba’zan esa o‘zicha afsuslanib, “Ey Xudo, shu ishni bekor qildim”, – deya afsuslanadi va ruhiy olamidagi ziddiyatlar asosliroq yuzaga chiqadi.

Romanda ramziy talqinlar bo‘lsada, an’anav-

[1] Hoshimov N. “Tog‘lik qiz” roman. Toshkent: Ijod-press nashriyoti, 2016. – B. 201.
[2] Hamdamov U. Turfa ranglar uyg‘unligi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, №4. 29.09. 2000.

iy uslub yetakchilik qiladi. Chunki Hasanga emas Husanga turmushga chiqqan asar qahramoni Mushtariyning tafakkuri atrof-javonidagi turfa taqdirlarni ko‘rib, chandon orta boradi. Buning natijasida u moddiy manfaatni emas, ma’naviy xazinani qo‘lga kiritadi.

U o‘zini tafakkuri yuksak, har bir narsa-hodisaga tiyrak nigoh bilan qaray oladigan darajada g‘olib sanaydi. Professor A.Rasulov alohida qayd etganidek, “Diliga ishq o‘ti tushgan yigitcha ayni zamonda bo‘lg‘usi ota hamdir. Shu sabab, yo‘l uzra u ota-ona qadrini anglab yeta boshlaydi, o‘z ota-onasi bosib o‘tgan yo‘lni bugunicha ko‘radi. Nafaqat bosib o‘tilgan yo‘l, balki kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ehtimollarni ham ko‘ra oladi. Bir ro‘zg‘orning boshiga kela olish uchun, to‘laqonli oila boshi bo‘la olish uchun avvalo otaning va onaning kimligini anglab olish lozim. Chunki, yo‘l juda ko‘hna. Bir oz vaqt o‘tgach, Hasan ham ota bo‘ladi va ota-onasining yo‘lini takrorlaydi”[1]. Ayonki, narsa va hodisalarning “tili”ni tushuna boshlagan “nigohi tiniq” o‘spirin Rossiyaga safari davomida hayotning mohiyatini teran anglab yetadi. Shu o‘rinda aytish joiz, ushbu asarda an’anaviy tasvir uslubi bo‘rtib turadi.

Ayniqsa, asarda XX asrning adabiyotiga o‘z ulushini qo‘shgan bir necha ijodkorlar asarlaridan terib olingan teran falsafiy parchalar romanga yangicha ruh va kayfiyat bag‘ishlay olgan. Unda Shavkat Rahmonning dilbar satrlari, Hamid Olimjon, Zulfiya, Erkin Vohidov va Ulug‘bek Hamdamning satrlari fikrimizni to‘la quvvatlaydi. Hasan oilasiga madad bo‘lish uchun Rossiyaga safar qiladi, lekin safari davomida u avval ko‘rmagan, boshidan kechirmagan “voqealar”ning tirik guvohi bo‘ladi. Ramziy ishoralar, falsafiy umumlashmalar yasay olgan N.Hoshimov ikkita ishorani keltirib o‘tadi. Birinchisi, Svetlana ismli rus qiziga uylanishi, ikkinchisi esa Rossiyada vafot etgan ukasi Husanga monument haykal qo‘yishi. Romanda kuchli dramatik lavhalar yo‘q. Ammo, ma’nolar to‘qnashuvi, ularning bir-biridan quvvat olish hollari anchayin o‘ziga xos tarzda inkishof qilingan. Masalan, Hasanning o‘z sevgan qizining to‘yida bo‘lishi holati. Mushtariy Hasanning ukasi Husanga turmushga chiqayotgan edi. Ammo, yaratganning inoyati bilan o‘zini qo‘lga oladi. Shuningdek, oldida son-sanoqsiz yo‘llar bo‘lsa-da, o‘zi talpingan ideallar og‘ushida sarosar kezingan chayir bolakay qalbida - Mushtariyga ehtiyoji o‘shandayligicha qolaveradi. Ammo, endi u taqdir yo‘lida o‘zligini izlab begona yurtlarga ishlagani ketadi.

Muxtasar qilib aytganda, asar syujetidan o‘rin olgan turfa xil qahramonlar xarakterlarining shakllanishiga xizmat qilsada, roman syujeti asosida polifonik tasvir yetakchilik qilishini anglaymiz. Ijodkor bu tasvir usulidan inson ma’naviy olamine, odam va olam o‘rtasidagi dialektik birlikni mantiqiy bog‘lash uchun foydalanganligini kuzatamiz. Asardagi Hasan ruhiyatidagi turfa xil o‘zgarishlar, bir shaxs qalbida tug‘yon urayotgan o‘z qarashlarini bir necha o‘rinlarda mahorat bilan yorita olgan. Inson o‘zi yashayotgan dunyodan ko‘ra tasavvuridagi olamni teranroq anglab borishiga asar sujetidagi voqealar asos bo‘ladi. Shuning uchun ko‘p ma’nolilik nafaqat syujetda, balki inson ruhiyatidagi turfa xil o‘zgarishlar natijasida yanada teranroq yoritilgan.

Rezyume: mazkur maqolada Nabijon Hoshimovning romanchilikdagi badiiy mahorati, jumladan, an’anaviy syujet yaratish yo’lidagi izlanishlari, xarakter yaratish mahorati, hayot mohiyatini anglash uchun kurashish, ramziy timsollar orqali hayotiy va inson tafakkuridagi muammolarni baddiy talqini adibning “Tog‘lik qiz” romani misolida ochiqlangan. Shuningdek, maqolada keyingi davr adabiyotidagi o‘zgarishlar va turli xil qarashlarni, tasvirlarni asar syujetiga olib kirishi, adabiyotning asosiy obyekti hayot, predmeti esa inson ekan uni turfa xil ohanglarda talqin etish an’anasi yuksalib borayotganligi, obrazlar tizimi, voqealar talqini zamin bilan, undagi real hayot bilan bog‘langanligi va shu kabi masalalar mazkur roman tahlili davomida o‘z ilmiy-amaliy isbotin topgan.

Resume: this article reveals Nabijon Hoshimov’s artistic skills in novel writing, including his research on creating a traditional plot, his skill in creating characters, his struggle to understand the essence of life, and his artistic interpretation of life and human thinking problems through symbolic images, using the example of the writer’s novel “Tog‘lik qiz”. The article also discusses the changes in the literature of the later period and the introduction of various views and images into the plot of the work, the growing tradition of interpreting life

[1] Rasulov A. Akslar falsafasi. – Toshkent: “Sharq”, 2012. – B. 405.

in various tones, the system of images, the connection of the interpretation of events with the ground, with real life in it, and similar issues that have found their scientific and practical proof during the analysis of this novel.

Резюме: В статье раскрывается художественное мастерство Набиджона Хошимова в написании романа, включая его исследования по созданию традиционного сюжета, мастерство создания персонажей, стремление постичь суть жизни и художественную интерпретацию проблем жизни и человеческого мышления посредством символических образов на примере романа писателя «Тоғлик қиз». В статье также рассматриваются изменения в литературе более позднего периода и внедрение различных взглядов и образов в сюжет произведения, крепнущая традиция интерпретации жизни в разных тонах, система образов, связь интерпретации событий с землей, с реальной жизнью в ней и другие подобные вопросы, нашедшие своё научное и практическое подтверждение в ходе анализа этого романа.